

**IQTISODIYOTNI MODERNIZATSİYALASH SHAROITIDA SANOAT
KORXONALARIDA INNOVATSİON FAOLİYATI SAMARADORLIGINI
OSHIRISHNING AHAMIYATI.**

Shavqiyev Erkin

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Iqtisodiyot fakulteti

Raqamli Iqtisodiyot kafedrasи professori.

Umirzoqova Sevinch Karim qizi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

IK-122 guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat korxonalarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Maqolada innovatsiyalarni joriy etishning afzalliklari, sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishdagi roli hamda innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion boshqaruv usullari sanoat korxonalarida samaradorlikni oshirishda qanday ahmiyat kasb etishi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: innovatsion faoliyat, sanoat korxonalari, modernizatsiya, iqtisodiy rivojlanish, texnologik taraqqiyot, raqobatbardoshlik, innovatsion boshqaruv.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda sanoat korxonalarining innovatsion faoliyati ularning barqaror rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, innovatsiyalarni joriy etgan korxonalar tez rivojlanadi, ishlab chiqarish hajmini oshiradi va bozor talablariga moslashadi. Shu boisdan, sanoat

korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish dolzarb masala hisoblanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar davomida iqtisodiyot tarmoqlarining innovatsion rivojlanishiga shart-sharoit yaratishga alohida e'tibor berilib kelmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyulidagi PF-165 sonli "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmoni bilan mamlakatimiz innovatsion rivojlanish strategiyasi tasdiqlandi. Ushbu strategiya iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada, shu jumladan qishloq xo'jaligi, energetika, qurilish, ta'lif, sog'liqni saqlashda innovatsion va texnologik rivojlanish bo'yicha davlat siyosatining maqsadli yo'nalishlarini belgilab berib uning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- innovatsion infratuzilma subyektlari tarmog'ini shakllantirish orqali startap tashabbuslarni
 - qo'llab-quvvatlash;
 - innovatsion faoliyatni davlat tomonidan
 - qo'llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish orqali innovatsion faol tashkilotlar ulushini oshirish;
 - kichik tadbirkorlikning innovatsion faolligini oshirish orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy
 - jadal o'sishini ta'minlash;
 - yangi turdagи mahsulotlar va innovatsion
 - texnologiyalar yaratishning kompleks tizimini
 - shakllantirish va bu orqali innovatsiyalar talabini
 - rag'batlantirish;
 - innovatsion faoliyat boshqaruvida inson kapitalini yanada rivojlantirish.

Bugungi kunda sanoat korxonalarining an'anaviy bozorlarda raqobatbardoshligini saqlab turishi va yangi bozorlarga kirib borishida korxonalarning innovatsion rivojlanishini ta'minlash dolzarb masala hisoblanadi. Innovatsiya-bu yangilik va uni jamiyatga tatbiq etish demakdir, sanoat esa iqtisodiyotimizni harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi.

Shu sababli korxonalar iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda ularning innovatsion jihatdan rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash, faoliyatiga joriy etish va muntazam rivojlantirib borish har bir korxona uchun muhim hisoblanadi.

Innovatsion faoliyat sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va ularning bozor talablariga moslashishida muhim ahamiyatga ega. Uning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish – zamonaviy texnologiyalar va yangi uskunalar joriy etish orqali mahsulot tannarxi pasayadi va sifat yaxshilanadi.
- Raqobatbardoshlikni oshirish – innovatsiyalar korxonalarni bozorga mos mahsulot ishlab chiqarishga undaydi.
- Resurslardan samarali foydalanish – energiya tejamkor texnologiyalar va ekologik toza ishlab chiqarish usullari iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.
- Eksport salohiyatini oshirish – innovatsion mahsulotlar xalqaro bozorda raqobatbardosh bo'lib, eksport hajmini oshirish imkonini beradi.¹

Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun quyidagi yo'naliishlarga e'tibor qaratish lozim:

¹ Freeman, C. (1991). Technology Policy and Economic Performance: Lessons from Japan. Pinter Publishers.

- Raqamli texnologiyalarni joriy etish – sanoat 4.0 kontseptsiyasiga asoslangan holda sun’iy intellekt, IoT (Internet of Things) va avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish.
- Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalarini qo‘llab-quvvatlash – yangi mahsulot va texnologiyalarni yaratish uchun ilmiy izlanishlarga investitsiya kiritish.
- Davlat tomonidan rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish – soliq imtiyozlari, grantlar va subsidiyalar orqali innovatsion korxonalarni rivojlantirish.
- Kadrlar malakasini oshirish – innovatsion jarayonlarni samarali boshqarish uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash.
- Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish – ilg‘or texnologiyalarni joriy etish maqsadida xorijiy kompaniyalar va ilmiy markazlar bilan hamkorlik qilish.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion faoliyatni rivojlantirish sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim ro‘l o‘ynaydi. Modernizatsiya jarayonlari bilan bog‘liq holda innovatsiyalarni joriy etish nafaqat korxonalar darajasida, balki umuman mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, davlat va xususiy sektor tomonidan innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Schumpeter, J. A. (1934). The Theory of Economic Development. Harvard University Press.
2. Freeman, C. (1991). Technology Policy and Economic Performance: Lessons from Japan. Pinter Publishers.
3. Drucker, P. (1998). Innovation and Entrepreneurship. HarperBusiness.
4. OECD (2021). Science, Technology and Innovation Outlook 2021. OECD Publishing.